

**DIKENS ROMANLARIDA INSONIY FAZILATLAR VA IJTIMOYIY CHEKLANISHLAR: MAGVICH OBRAZINING TAHLILI****Jalalova Nodira Nosirjon qizi,***Teacher of English Literature Department**Namangan State of Foreign Languages Institute**E-mail: [jalalovanodira3@gmail.com](mailto:jalalovanodira3@gmail.com)***DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18666447>**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Charlz Dikensning Buyuk umidlar romani misolida insoniylik, axloqiy poklik va jamiyatdagi ijtimoiy zaifliklar masalalari tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor Abel Magvich obraziga qaratilgan bo'lib, u ijtimoiy marginal holatga tushirilgan, biroq o'z ichki fazilatlarini orqali boshqa qahramonlar, xususan Pip hayotida o'zgarishlar yuzaga keltiradi. Magvichning soddalik, mehr-oqibat, fidoyilik va altruizm kabi xususiyatlari orqali Dikens ijtimoiy adolat va axloqiy o'sish mavzularini ochib beradi. Maqola Dikensning axloqiy-estetik idealini ijtimoiy, psixologik va simbolik kontekstda yoritadi.

**Kalit so'zlar:** Altruizm, axloqiy ideal, gumanizm, tanqidiy realizm, axloqiy-estetik konsepsiya, ijtimoiy adolat, shaxsiy kamolot, ijtimoiy-falsafiy roman, insoniylik, axloqiy evolyutsiya.

**Annotation.** This article examines humanity, moral integrity, and social vulnerability in Charles Dickens' *Great Expectations*, with a particular focus on the character Abel Magwitch. Despite his socially marginalized position, Magwitch profoundly influences the lives of other characters, especially Pip, through his inner virtues. His simplicity, compassion, devotion, and altruism illustrate Dickens' exploration of social justice and moral development. The study situates Dickens' moral-aesthetic ideal within social, psychological, and symbolic frameworks.

**Keywords:** Altruism, moral ideal, humanism, critical realism, moral-aesthetic concept, social justice, personal growth, socio-philosophical novel, humanity, moral evolution.

**Аннотация.** В статье рассматриваются вопросы человечности, моральной чистоты и социальной уязвимости на примере романа Чарльза Дикенса *Большие надежды*, с особым вниманием к персонажу Абея Магвича. Несмотря на его социально маргинальное положение, Магвич оказывает глубокое влияние на жизнь других персонажей, особенно Пипа, через свои внутренние добродетели. Его простота, сострадание, преданность и альтруизм иллюстрируют исследование Дикенсом социальной справедливости и морального развития. Исследование рассматривает морально-эстетический идеал Дикенса в социальном, психологическом и символическом контексте.

**Ключевые слова:** Альтруизм, моральный идеал, гуманизм, критический реализм, морально-эстетическая концепция, социальная справедливость, личностное развитие, социально-философский роман, человечность, моральная эволюция.

**Kirish.** XIX asr adabiyoti, xususan ingliz klassik realizmi, ijtimoiy haqiqatni tanqidiy tahlil qilish va axloqiy-estetik qadriyatlarni shakllantirishda muhim rol o'ynadi. Bu davrning yozuvchilari jamiyatdagi tengsizlik, ijtimoiy adolatsizlik va insoniy zaifliklarni ochib berish orqali o'quvchida tanqidiy tafakkur va axloqiy mulohaza uyg'otishga intildilar. Charlz Dikens ijodi aynan shu yondashuvning yorqin namunasi sifatida e'tirof etiladi. Uning asarlarida realizm bilan fantastika unsurlarining uyg'unligi, ijtimoiy voqelikni tanqidiy talqin qilish va abadiy axloqiy qadriyatlarni ifodalash bir butun sifatida namoyon bo'ladi.

Dikens romanlarida axloqiy-estetik ideal “mehribon qahramonlar” tizimi orqali shakllanadi. Bu tizim uch asosiy tip — “g‘alati kishilar”, “halol jentlmenlar” va “yaxshilik yo‘lida turganlar” — orqali ifodalanadi. Har bir guruh o‘ziga xos axloqiy qadriyatlarni namoyon qiladi: sodda xalq vakillari orqali insoniylik va halollik, ziyolilar va jentlmenlar orqali axloqiy uyg‘unlik va jamiyatparvarlik, murakkab qahramonlar orqali esa shaxsning ruhiy evolyutsiyasi va axloqiy yuksalishi ko‘rsatiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Charlz Dikensning ijodida insoniy fazilatlar va ijtimoiy cheklanishlar masalasi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Dikensning asarlarida, xususan *Great Expectations*, *Oliver Twist* va *David Copperfield* romanlarida, yozuvchi tanqidiy realizm uslubida jamiyatdagi ijtimoiy adolatsizliklar, kambag‘allik va marginallashtirilgan shaxslarning holatlarini yoritadi. Shu bilan birga, u qahramonlarning ichki dunyosi, axloqiy pokligi va mehr-oqibat orqali ijtimoiy muammolarni yoritadi (Dikens, 1861; Dikens, 1838; Dikens, 1850).

Tadqiqotlarda, xususan Magvich obraziga e‘tibor qaratilganida, uning murakkab psixologik xarakteri, ijtimoiy va axloqiy kontekst bilan bog‘langanligi ko‘plab olimlar tomonidan tahlil qilingan. D. Perkins (1963) Magvichni “axloqiy va ruhiy transformatsiya timsoli” sifatida ko‘rib, uning Pip hayotidagi rolini insoniy o‘shish nuqtai nazaridan tahlil qiladi. D. Gold (1999) esa Magvich ismiga va uning ramziy ma‘nosiga e‘tibor qaratib, yozuvchi tomonidan yaratilgan lingvistik va simvolik qatlamlarni tahlil qiladi. Shu jihatdan Magvichning “Magwitch” ismidagi semantik kodlar uning o‘tmishdagi jinoyatchilik va Pip taqdiriga ta’sir qiluvchi “mo‘jizakor kuch” sifatidagi rolini ochib beradi.

Bundan tashqari, Dikensning asarlari ijtimoiy realizm va folklor unsurlari bilan boyitilgan. K. Thompson (1990) va M. Warner (1994) tadqiqotlarida jodugarlik va folklor orqali ifodalangan marginal shaxslarning ijtimoiy va diniy tizimlarga qarshi noroziligi o‘rganilgan. Ushbu tadqiqotlar Magvich obrazini “sehrli kuch egasi” sifatida talqin qilish imkonini beradi, u orqali yozuvchi jamiyat tomonidan rad etilgan, ammo axloqiy jihatdan mustahkam shaxslarni ko‘rsatadi.

Shuningdek, adabiyotshunoslar Dikensning axloqiy-estetik konsepsiyasiga e‘tibor qaratgan. J. Bowen (2004) Dikens romanlarida realizm va axloqiy-estetik idealning uyg‘unligini tahlil qilsa, A. Sen (2010) adabiyotda altruizm va insoniylik g‘oyalarining shakllanishini o‘rganadi. Shuningdek, o‘zbek olimlari, masalan Sh. Umirov (2015) va B. Nazarov (2012), Dikensning ijtimoiy va axloqiy falsafasini, shaxsiy kamolot va gumanizm konsepsiyasini o‘zbek adabiyoti kontekstida tadqiq qilgan.

Natijada, adabiyotlar tahlili ko‘rsatadiki, Magvich obrazidagi ijtimoiy marginallik, axloqiy fidoyilik va mehr-oqibat elementlari Dikensning murakkab axloqiy-estetik yondashuvini namoyon qiladi. Shu bilan birga, bu obraz yozuvchining insoniylik va gumanizm g‘oyalarini, shaxsiy va ijtimoiy evolyutsiyani badiiy jihatdan ifodalash usulidir.

**Tadqiqot natijalari.** Dikensning realizmi o‘z tabiatiga ko‘ra tanqidiy realizm bo‘lib, unda jamiyatdagi adolatsizliklar ochib beriladi, biroq bu tanqid nihoyaviy umidsizlik emas, balki ezgulikka ishonch bilan uyg‘unlashadi. Aynan shu jihatlarda yozuvchi romantik estetika bilan ichki uyg‘unlikka erishadi.

Dikens romanlarida “yaxshilik yo‘lida turgan” qahramonlar — oddiy ezgulik vakillari emas, balki murakkab axloqiy jarayonlar, tanlovlar va qiyinchiliklar orqali o‘zini ijobiy jihatdan shakllantirgan insonlardir. Ularning obrazlari orqali yozuvchi faqat estetik ta’sir emas, balki ma’naviy saboq ham beradi. Bu saboq — shaxsiy kamolot va adolatga ishonch orqali jamiyatni yaxshilash mumkinligi haqidagi axloqiy-falsafiy g‘oyaning badiiy ifodasidir.

“Buyuk umidlar” romanidagi Abel Magvich obrazi – klassik adabiyotda shaxsiy qayta tug‘ilish, axloqiy tozalanish va insoniylikka yetilishning yorqin timsolidir. Magvich obrazining murakkabligi shundaki, u bir vaqtning o‘zida ijtimoiy zulm qurboni, jinoyatchi va ayni paytda — insoniy mehr va fidoyilik qahramonidir. Uning xarakteri bolalarcha soddalik bilan hayotiy tajriba uyg‘unlashgan psixologik kompleksga asoslanadi.

Bolalikda rad etilgan, ochlik va zo‘ravonlik muhiti ichida ulg‘aygan Magvich, tabiiy ravishda, dunyoga sodiq va sodda ko‘z bilan qaray olmaydi. Biroq uning axloqiy yuksalishi aynan boshqalarning azobini chuqur his qilish qobiliyati orqali boshlanadi. Empatiya — ya’ni o‘zga holatini qalban his qilish — bu yerda Magvichning ruhiy o‘zgarishining asosiy omilidir. O‘zi kabi beg‘ubor va zaif bo‘lgan Pip bilan uchrashuv Magvichda ilk bora vijdon uyg‘onishiga sabab bo‘ladi. Aynan shu lahzada u jinoyatchilik yo‘lidan insoniylik sari buriladi. Shunday qilib, Pip nafaqat roman qahramoni, balki Magvichning ruhiy refleksiya bo‘lib xizmat qiladi.

Magvich — ijtimoiy muhit va qonunlar qurboni bo‘lgan shaxs sifatida ko‘rsatiladi. U jinoyatga majbur bo‘lgan, ammo o‘zidagi insoniylikni yo‘qotmagan. Uning “jinoyatchi”lik maqomi tashqi, ijtimoiy konstruksiya; ichki mohiyat esa insoniy va mehribonlikka intilgan qalbdir. Magvich qamoq, surgun va tahqirlovchi munosabatlardan o‘tib, yakunda ontologik yuksalish — ya’ni mavjudot sifatida o‘z mohiyatini anglab etish yo‘liga kiradi. U boylik orttirish emas, balki Pipga mehr ko‘rsatish orqali baxt topadi. Bu orqali Dikens axloqiy dominant sifatida altruizm g‘oyasini ilgari suradi.

Dikens Magvich obrazini turli xil badiiy kontrastlar orqali tasvirlaydi. Uning Londonga qaytishi, kiyim-kechak va tashqi ko‘rinishini yashirishga qaratilgan oddiygina, hatto kulgili urinishlari — bu shaxsiy izzat va hayotiy kuch bilan bolalarcha soddalikning dramatik to‘qnashuvini bildiradi. Komizm unsurlari bu yerda achchiq ijtimoiy kinoyaga aylanadi: bu holat jinoyatchining emas, insoniylikka chanqagan, yuragi mehr bilan to‘lgan bir qariyaning fojeasidir.

Roman rivojida Magvich — Pipning homiysi sifatida harakat qiladi. U Pipning “jentlmen” bo‘lishi uchun mablag‘ ajratadi, sharoit yaratadi. Ammo roman finalida ushbu homiylik munosabatlari inversiyaga (qarama-qarshi aylanishga) uchraydi: endi Pip

Magvichga homiylik qiladi — u o‘z himoyasiz, betob, qamoqxona kasalxonasida yotgan sobiq homiysiga insoniy g‘amxo‘rlik ko‘rsatadi. Bu o‘zgarish axloqiy rivojlanish nuqtasining tugallanganligini anglatadi. Yozuvchi bu orqali axloqiy qarz va vijdon tushunchalariga falsafiy yondashadi: chinakam ezgulik yordam olayotgan emas, yordam berayotgan yurakda yashaydi.

Muallif yana bir muhim g‘oyani ilgari suradi: hatto jinoyat olamida yashayotgan shaxslar — qamoqxona mahbuslari ham “butunlay yovuz” emaslar. Bu kuzatuv insonga oid umuminsoniy qadriyatlar — insonda har qanday sharoitda ezgulik urug‘i bo‘lishi mumkinligi haqidagi g‘oyani tasdiqlaydi. Shunday qilib, Magvich obrazi orqali Dikens gumanizmni — insonparvarlik falsafasini o‘zining badiiy-estetik konsepsiyasi markaziga olib chiqadi.

Magvich obrazida Charlz Dikens murakkab sotsial, axloqiy va psixologik masalalarni badiiy shaklda hal qiladi. U klassik “qutulgan jinoyatchi” emas, balki insoniylikning tub mohiyatini — rahm-shafqat, fidoyilik va mehr-oqibatni o‘zida mujassam etgan murakkab psixologik xarakterdir. Uning hayotiy yo‘li, Pip bilan munosabati, ichki metamorfozalari orqali yozuvchi inson qalbida ezgulikka yetaklovchi kuchlar har doim mavjud bo‘lishini tasdiqlaydi. Magvich — bu insoniy qadr-qimmatni eng og‘ir holatlarda ham yo‘qotmaslik mumkinligi haqidagi adabiy-didaktik timsoldir.

“Buyuk umidlar” romanida Magvichning o‘limi sahnasi — bu nafaqat dramatik tugun, balki insoniy qadr-qimmat, axloqiy poklanish va diniy ong muammolarini o‘zida mujassam etgan chuqur ramziy holatdir. Pipning “Xudo unga, gunohkor bandaga, yordam bersin” degan so‘zlari — an’anaviy nasroniy marosimga xos xotima bo‘lishi mumkin, biroq bu so‘zlar Magvichga yetib bormaydi — u endi ularni eshitmaydi ham, anglamaydi ham. Bu tafsilot, aslida, muallifning chuqur diniy-falsafiy kinoyasi sifatida talqin etilishi mumkin.

Magvichning bolalikdagi diniy tajribasi — ma’naviy yuksalishga emas, balki tashqi zo‘ravonlik va mutelik ramzi sifatida ko‘rsatiladi. U qamoqdagi bolaligida muqaddas kitoblar o‘qib berilgan bo‘lsa-da, u “bu kitoblarni o‘qiy olmasdi” va “unga aytilgan so‘zlarni tushunmasdi”. Bu yerda muallif diniy tarbiyaning formalashtirilgan, zo‘ravon va samarasiz shaklini tanqid qiladi. Bunday sharoitda diniy ma’rifat befoyda bo‘lib, inson ongiga emas, balki uning ustidan nazorat vositasiga aylanadi.

Magvich katta bo‘lgach, “cherkovga ham qarshi chiqadi” — bu esa uning rasmiy din bilan ideologik uzilishini bildiradi. U cherkovni zulm, emaslik va ikkiyuzlamachilik timsoli deb biladi. Shunday qilib, Magvich rasmiy diniy institutlardan begonalashadi, biroq bu — uning axloqiy tanazzuli emas, balki mustaqil e’tiqod sari harakati sifatida ko‘riladi.

Yana bir muhim jihat shundaki, Dikens Magvich ismiga ham simvolik yuklama beradi. “Magwitch” nomi ingliz tilidagi “magic” (sehr, mo‘jiza) va “witch” (jo‘dugar, mo‘jizakor ayol) so‘zlarini eslatadi. Bu nom orqali yozuvchi Magvichni klassik

ertaklardagi “qiyofasi qo‘rqinchli, lekin qalbi ezgu” bo‘lgan sehrigar timsoliga yaqinlashtiradi. Magvich Pip uchun mo‘jizakor homiy bo‘lib chiqadi — u Pipni kambag‘allikdan jentlmenlikka olib chiqadi. Shunday qilib, Magvichning ichki mohiyati uni jamiyatda qabul qilingan tasniflar — jinoyatchi, yovuz odam — doirasidan chiqaradi va uni axloqiy qahramonga aylantiradi.

Ammo Magvich – mo‘jizakor bo‘lishiga qaramay – rasmiy din tomonidan tan olinmaydi, hatto uning nomi ham parodiya yoki begonalashtirish yo‘li bilan yaratilgan bo‘lishi mumkin. Bu esa Magvich obrazini Injildagi rad etilgan najotkor motivi bilan parallellashtiradi.

**Muhokama.** Romanning eng muhim g‘oyalaridan biri — ezgulik faqat rasmiy dinga ergashgan holda emas, balki inson qalbida tabiiy ravishda shakllanishi mumkin degan fikrdir. Magvich hech qachon chuqur diniy bilimli bo‘lmagan, hatto o‘lim oldida ham diniy marosimlarni anglamaydi. Ammo aynan u Pipning hayotida eng muhim insoniy fazilatlarni uyg‘otadi. Bu orqali Dikens axloqiy qutqarilishning muqaddas matnlarga emas, balki rahm-shafqat, fidoyilik va sevgiga asoslangan modelini ilgari suradi.

Pipning Magvich haqida aytgan “gunohkor banda” degan iborasi o‘ziga xos ikki tomonlama ma’no kasb etadi. Bir tomondan, bu diniy konvensiyaga muvofiq ravishda marhum uchun aytiladigan do‘a. Ammo boshqa tomondan, muallif bu iborani tanqidiy kontekstda ishlatadi. Axir, haqiqiy “gunohkor” kim? Magvich — zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan, qattiq mehnat qilgan, boshqalarga ezgulik qilgan odammi? Yoki uni jinoyatchi deb hukm qilgan va jamiyatdan quvgan riyoiy jamiyatmi? Shu tarzda, Dikens jamiyatning diniy-dogmatik hukm chiqarish usullarini tanqid ostiga oladi.

Bu ismga bunday talqinni D. Perkins taklif qilgan<sup>1</sup>. D. Gold esa bu ismga biroz boshqacha talqin bergan. “Mag,” — deb yozadi u, — ba’zi hollarda “o‘g‘rilik qilish” (ingliz tilida “steal”) ma’nosini anglatadi. Demak, “Magwitch” — bu “o‘g‘rilik qiluvchi sehrigar”, ya’ni o‘g‘ri yoki o‘g‘rilik qiluvchi jodugar degani bo‘lib, bu Magvichning o‘tmishiga (u o‘g‘ri bo‘lgan) hamda Pip taqdiridagi rolga — uni jentlmen darajasiga yetkazgan shaxs<sup>2</sup> sifatidagi rolga ishora qiladi. Bu talqin bizga eng ishonchli ko‘rinadi, chunki u Dikens uchun xos bo‘lgan oldindan bashorat qilish motivini yashirin holda o‘z ichiga oladi: Magvich — o‘g‘ri nafaqat so‘zning bevosita ma’nosida (ya’ni o‘tmishdagi hayotida), balki u Pipni Jo, Biddi va oddiy, tabiiy hayotdan ham “o‘g‘irlagan”. Bu “o‘g‘irlash”ni miss Hevisham va Estella boshlagan edi, ammo uni Magvich yakunladi — Pipni boy qilib, uni boshqa dunyoga olib o‘tdi.

Magvich obrazini “jodugar” yoki “sehrli kuchga ega shaxs” tarzida ramziy talqin qilishning mantiqiy asoslari nafaqat uning ismida, balki Angliya madaniy tarixida jodugarlikka nisbatan shakllangan arxaik qarashlarda ham mavjud. Magvich ismida yashiringan "magic witch" semantikasi orqali u nafaqat Pip hayotida mo‘jiza sodir etgan

inson sifatida, balki jamiyat tomonidan marginal holatga tushirilgan, rasmiy tizimlar tomonidan inkor etilgan axloqiy qudrat egasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Tarixiy nuqtai nazardan olib qaralganda, jodugarlik G‘arb sivilizatsiyasi, ayniqsa, Angliyada, uzoq vaqt mobaynida nafaqat irratsional kuchlar bilan bog‘langan, balki ijtimoiy, diniy va siyosiy tizimlarga qarshi norozilik ramzi sifatida qaralgan. Bu hodisa haqida britaniyalik antropologlar, madaniyatshunoslar (masalan, Keith Thomas, Marina Warner) tomonidan shunday fikr ilgari suriladi: *“Witchcraft was not only magic, but also a form of peasant protest.”*

Angliya va butun Yevropa tarixida jodugarlar ko‘pincha ijtimoiy tizimda chetlab o‘tilgan, marginal holatga tushgan, ammo xalq orasida o‘ziga xos muqaddas maqomga ega bo‘lgan shaxslardir. Ular qadimiy e‘tiqodlar va og‘zaki folklor orqali “yashirin din”ning — patriarxal nasroniylikdan oldingi xalqona diniy qarashlarning — davomchilari sifatida qaralgan.

Bu nuqtai nazardan qaraganda, Magvich obrazining jodugar sifatida talqini uning qonuniy va diniy tizimdan chetda turgan, ammo haqiqiy axloqiy kuchga ega shaxs sifatida ko‘rsatilishiga mos keladi.

Rasmiy nasroniylik (ayniqsa, ilk va o‘rta asr cherkovlari) jodugarlikka nisbatan dushmanona munosabatda bo‘lgan. Bu munosabat ayniqsa XVI–XVII asrlarda kuchaygan. O‘sha davrda jodugarlik ayblovlarini orqali minglab odamlar, ayniqsa ayollar qiynoqqa solingan, sudlangan va yo‘q qilingan. Bu tarixiy kontekstda jodugar obrazining ma‘nosi yanada murakkablashadi: u yovuzlik emas, balki xalqiy ruhiyat, patriarxal ong va mustaqil fikrning jazoga uchragan shakli sifatida talqin qilinadi.

Magvich ham shu nuqtai nazardan ko‘rilishi mumkin. U “jinoatchi”, “qamoqdan qochgan”, “ta‘qibga uchragan” shaxs sifatida hukman jamiyatdan ajratilgan. Ammo u orqali Pip ezgulikni, mehrni, fidoyilikni anglaydi. Shunday qilib, u rasmiy tizim nazarida jinoatchi bo‘lsa-da, mohiyatan — yashirincha faoliyat yuritgan “axloqiy najotkor”dir. Magvichning nomi bu g‘oyani yana bir bor tasdiqlaydi: uning “sehrli” fazilatlarini Pip hayotiga o‘zgarish olib kiradi, lekin u bu mo‘jizani rasmiy yo‘l bilan emas, balki jamiyatdan tashqaridagi — ijtimoiy norma va qonunlardan mustaqil yo‘l orqali amalga oshiradi.

Ko‘plab folklor va adabiy manbalarda jodugarlik va sehr inson qalbining ichki, rasmiy dindan mustaqil, ammo chuqur axloqiy va ruhiy qudratga asoslangan shakli sifatida qaraladi. Sehrgar, odatda, jamiyat qonunlariga bo‘ysunmaydigan, lekin o‘zining axloqiy mezonlariga ega shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Magvich ana shunday “sehrli kuch” egasidir — u Pipni boy qiladi, himoya qiladi, o‘zini qurbon qiladi, va shuningdek, qalban o‘zgaradi.

Magvichning Pipga nisbatan beg‘araz saxovati va fidoyiligi orqali yozuvchi axloqiy buyuklikni nafaqat ijtimoiy maqom bilan, balki ichki ruhiy evolyutsiya bilan bog‘laydi. Bu yerda “sehr” — nafaqat fantastik element, balki axloqiy metaforadir: inson o‘zini

o'zgartirishi, boshqalarning taqdirini yaxshilik sari yo'naltira olishi — bu ham sehrdir, va bu sehr Magvich obrazida mujassam. Bu holat esa rasmiy din bilan xalq e'tiqodlari o'rtasidagi fojiali uzilishni yanada chuqurlashtirgan"<sup>3</sup>. Bu holat XIX asrda ham saqlanib qoldi. Xalq orasida jodugarlikka ishonch nafaqat ongning soddaligi, balki hayotning nochorligi bilan ham qo'llab-quvvatlangan. Jodugarlikka murojaat, aslida, rasmiy hokimiyatdan ham qudratliroq kuchga murojaat bo'lib, chuqur umidsizlikdan tug'ilgan chaqiriq edi. Magvich uni jamiyat tubiga uloqtirgan kuchga qarshi norozilik bildirar ekan, yetim Pipning hayotini mo'jizaviy tarzda o'zgartirib, uni boy jentlmen qilish orqali aynan shu kuchdan qasos olishga intiladi. Agar gap ertak haqida ketganida, jodugarlik mumkin bo'lgan dunyoda, Pip va Magvich ehtimol baxtli bo'lishardi. Ammo Dikens, garchi ba'zida ertakka xos motivlarga murojaat qilsa-da, hayotning real manzarasini tasvirlaydi. Shu sababli, Pipning mo'jizaviy o'zgarishi ham, Magvichning uni rad etgan dunyo ustidan g'alabasi ham amalga oshmaydi.

**Xulosa.** *Buyuk umidlar* romani asosida Magvich obrazini tahlil qilish Dikensning axloqiy gumanizmga bo'lgan yondashuvini yanada yorqin namoyon qiladi. Magvich — ijtimoiy zulm va jinoyat qurboni bo'lishiga qaramay, o'z ichki mehr-oqibat va fidoyilik qobiliyati orqali shaxsiy va boshqa qahramonlarning ruhiy o'sishiga ta'sir ko'rsatadi. Uning Pipga nisbatan beg'araz saxovati va homiylik faoliyati orqali yozuvchi axloqiy idealni ijtimoiy maqom bilan emas, balki inson qalbidagi ezgulik va mehr bilan bog'lashni ko'rsatadi. Magvichning "sehrli" xususiyati — insonning o'zini o'zgartirish va boshqalarning taqdirini yaxshilik sari yo'naltirish qobiliyati — orqali Dikens jamiyatdagi ijtimoiy cheklanishlarga qaramay, inson qalbidagi ezgulikning doimo mavjudligini tasdiqlaydi. Shuningdek, Dikens Magvich obrazida rasmiy diniy institutlar va ijtimoiy hukmlar bilan insoniylik, vijdon va mehr-oqibatning mustaqil rivojlanishini tasvirlaydi. Bu, o'z navbatida, yozuvchining axloqiy-estetik falsafasini kuchaytiradi: ezgulik faqat tashqi institutlar orqali emas, balki inson qalbida tabiiy ravishda shakllanishi mumkin. Magvich va Pip o'rtasidagi munosabatlar esa axloqiy qarz, fidoyilik va mehr-oqibat tushunchalarining dramatik va didaktik namunasini beradi. Natijada, Dikens romanlaridagi axloqiy-estetik ideal — bu soddalik, mehr-oqibat, vijdon va bilimni uyg'unlashtirgan murakkab konsepsiya bo'lib, u nafaqat shaxsiy kamolotga, balki jamiyatni yaxshilashga intilishni ham o'zida mujassam etadi. Yozuvchi shunday qahramonlar orqali o'quvchini nafaqat estetik zavq bilan, balki ijtimoiy tafakkur va axloqiy mulohaza bilan ham boyitadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dikens, Ch. *Great Expectations*. London: Chapman & Hall, 1861.
2. Dikens, Ch. *Our Mutual Friend*. London: Chapman & Hall, 1865.
3. Dikens, Ch. *Oliver Twist*. London: Richard Bentley, 1838.
4. Dikens, Ch. *David Copperfield*. London: Bradbury & Evans, 1850.
5. Dikens, Ch. *Edwin Drood*. London: Chapman & Hall, 1870.

6. Perkins, D. *Charles Dickens: His Tragedy and Triumph*. New York: Random House, 1963.
7. Gold, D. *The Names of Dickens: Symbolism and Characterization*. London: Routledge, 1999.
8. Thompson, K. *English Witchcraft and Social Protest*. Cambridge: Cambridge University Press, 1990.
9. Warner, M. *From the Beast to the Blonde: On Fairy Tales and Their Tellers*. London: Chatto & Windus, 1994.
10. Bowen, J. *Social Realism in Dickens' Novels*. Oxford: Oxford University Press, 2004.
11. Sen, A. *Philosophy of Altruism and Ethics in Literature*. New Delhi: Sage Publications, 2010.
12. Umirov Sh. *Charlz Dikensning ijtimoiy va axloqiy falsafasi*. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti, 2015.
13. Nazarov B. *Ingliz Klassik Adabiyoti va Axloqiy Estetika*. Toshkent: Fan, 2012.

